

MILLIY O'ZLIK VA FUQAROLIK JAMIYATINING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

*Abduxalilov Samandar Baxromjon ógli - TDTrU talabasi
Hamroyev Nozimbek Beshimovich - TDTrU talabasi*

Milliy istiqlolga erishgan mamlakatlarda davlat va jamiyatning strategik maqsadini belgilab olish zarurati yuzaga keladi. Bu muddao mamlakatda yashayotgan fuqarolarning orzu-intilishi, faoliyatini yo'naltiruvchi buniyodkor kuch bo'lib maydonga chiqadi. Yurtboshimiz Islom Karimov ushbu yo'lning pirovard maqsadini quyidagicha belgilab bergen edi: "Barqaror bozor iqtisodiyoti, aniq tashqi siyosatga asoslangan kuchli huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin".

Jamiyatning strategik maqsadini amalga oshirishda milliy o'zlikni anglash o'ziga xos o'rinni tutadi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsad ilmiy nazariyani: sobiq tuzumga xos illatlarni fosh etish, kishilar ongida saqlanib qolgan communistik mafkuraning g'ayrimilliy va g'ayriinsoniy mohiyatini olib tashlash; shuningdek, bozor iqtisodiyotini milliy zaminga tatbiq etish, uning erkin shaxsnинг shakllanishiga ta'sirini asoslashga, fuqarolik jamiyatining konseptual masalalarini, huquqiy demokratik davlat qurishning mexanizmlarini o'rganishga undadi. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li, ya'ni bozor iqtisodiyoti orqali fuqarolik jamiyatni va demokratik xuquqiy davlat barpo etish, avvalo, xalqimiz, millatimiz, ajdodlarimiz orzu-tilaklari tarixiy-madaniy an'analariga mos keladi; ikkinchidan, belgilangan maqsad quruq gipoteza emas, u jahon tafakkurining namunali ko'rinishlari, ilg'or davlatlarning ijtimoiy-tarixiy, madaniy va siyosiy tajribalariga asoslanadi; uchinchidan, ozod va obod Vatan barpo etish milliy o'zlikni anglashning mohiyatidan kelib chiqadi. Shu bois, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarda xalqimiz, millatimiz faol ishtirok etmokda; to'rtinchidan, mil-liy o'zlikni anglashning tub maqsadlarini ifoda etayotgan, ularni lo'nda va ham-maga tushunarli qilib yetkazayotgan Prezidentimizning sa'y-harakatlarini, fuqa-rolik jamiyatni va huquqiy davlat qurish haqidagi konseptual g'oyalarini xalqimiz qo'llab-quvvatlamoqda.

Kuchli ijroiya hokimiyatini yaratish milliy taraqqiyotni ta'minlash uchun kerak edi, albatta. Biroq u milliy taraqqiyotning pirovard natijasi, maqsadi emas. Kuchli mustaqil davlatga tayangan holda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga o'tiladi. Bu borada respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotida islohotlar olib borilmoqda, yangi

saylov tizimi, ko'ppartiyaviylik, ikki palatali parlament joriy etildi, hokimiyatning uchga taqsimlanishi amalga oshirildi, ommaviy axborot vositalarida hurfikrlikni rivojlantirish, nodavlat notijorat tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish organlarini demokratik institutlarga aylantirish maqsadida siyosiy-huquqiy chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Albatta, ushbu ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jamiyatning strategik maqsadidan kelib chiqadi.

Bu esa milliy o'zlikni nafaqat subyektiv g'oya, shu bilan birga, uning xalqimiz, millatimiz sa'y-harakatlari intilishlariga aylangan, obyektivlashayotgan hodisa ekanligini ham ko'rsatadi.

Kuchli davlat barpo etish g'oyasining o'zi mohiyatan milliy o'zlikni anglashga borib taqaladi. Xalq, millat shakllanayotgan paytda mustaqil, kuchli davlat zarurligini hali anglab yetmasligi mumkin. Hatto, xalq shakllanib tarix sahnasiga chiqqan chog'da ham uning barcha vakillari o'zining siyosiy ehtiyojini yetarli idrok etmasligi tabiiy hol. Bunda xalq, millatning siyosiy ongi rivojlangan, umumxalq umummillat manfaatlarini to'la anglagan vakillari, ayrim shaxslar yoki guruhlar yordamga keladi. "Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari" g'oyasi esa fuqarolik jamiyatiga tadrijiy borish yo'li, tamoyili hisoblanadi.

Mazkur tamoyilda ikki mafkuraviy asos mavjud: birinchisi, o'zbek xalqining tarixiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy tajribalariga tayangan holda O'zbekistonning fuqarolik jamiyat sari borish yo'lini asoslab berish; ikkinchisi, ilg'or davlatlarning demokratik tajribalari, umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlarga asoslanib, respublikamizning taraqqiyot modelini ishlab chiqishdir.

"Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" g'oyasi, milliy taraqqiyot yo'lini chuqur tadqiq etib, har bir bosqichning o'ziga xos vazifalarini aniqlab, mamlakat, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyati, strukturasi va vazifalarini davr talablariga muvofiq modernizatsiyalashtirib borishni taqozo etadi. Demak, milliy o'zlikni anglash tugallangan, mutlaq, ma'lum bir davr yoki maqsad bilan chegaralangan hodisa emas, u ham jamiyat, xalq, millat hayotiga mos tarzda o'zgarib, boyib, yangi yondashuvlar, maqsadlar, g'oyalar bilan yangilanib boradi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda milliy o'zlikni anglash milliy-madaniy vazifani o'taydi. Bu o'rinda milliy o'zlikni anglashning xalqimiz, millatimiz tarixiy-madaniy paradigmafiga tayanib yangi jamiyat qurish g'oyasini nazarda tutamiz. Birinchidan, adolatli davlat, insonparvar ma'naviyatli jamiyat qurish g'oyasining o'ziga xos jihatlari Farobi, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Axmad Yassaviy Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi ulug' ajdodlarimizning asarlarida o'z ifodasini topgan. Ikkinchidan, barpo etayotgan davlatimiz milliy an'analarimiz, madaniyatimizga asoslanadi. Islom Karimov: "Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojidir", deya ta'kidlaydi. Ko'rinish turibdiki, jamiyatimizning strategik maqsadi - fuqarolik

jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, eng avvalo, xalqimizning milliy-madaniy tajribasi, paradigma xususiyatlariga asoslanadi. Milliy-madaniy tajriba esa milliy o'zlikni anglashning tizimlaridandir. Demak, milliy o'zlikni anglash strategik maqsadga o'z tizimi, ya'ni milliy-madaniy an'analar orqali ham ta'sir etadi.

Milliy o'zlikni anglash fuqarolik jamiyatini ijtimoiyadolat, tenglik qaror topgan, inson huquqlariga amal qilinadigan ijtimoiy muhitda barpo etishni taqozo etadi. Shuning uchun u timoiy-huquqiy (normativ) makonni shakllantirishni shart qilib qo'yadi. Ijtimoiy-amaliy faoliyat o'zlikni anglashning real voqelikka aylanish bosqichidir. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda u xalq, millat va barcha jamiyat a'zolarining strategik maqsadga erishish borasidagi hamjihat harakatlari, jamiyat va davlatni boshqarishda faol qatnashishi o'tkazilayotgan islohotlarni amaliy qo'llab-quvvatlashlarida namoyon bo'ladi.

Milliy o'zlikni anglash - yuksak ma'naviy-ijtimoiy hodisa. U, eng avvalo, jamiyatdagi har bir shaxsning o'zligini anglashga intilishidan boshlanadi. Buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy bejiz «El netib topg'ay menikim, men o'zimni topmasam», degan satrlarni bitmagan edi.

Milliy o'zlikni anglash boshqa millatlardan o'zini ajratish, o'z qobig'iga berkinish emas. Aksincha, millatning o'ziga xosligini, jahon tamadduniga qo'shgan hissasini, ma'naviy merosini anglash, uni o'zlashtirish, undan iftixor qilish, millat madaniyatining tashuvchisiga aylanish, demakdir.

Ommaviy madaniyat va globallashuv millat va elatlar o'ziga xosligi va madaniy identifikatsiya jihatlarini yutib yuborayotgan ayni zamonda milliy o'zlikni anglash va har bir millatning o'ziga xosligini saqlash muammosi har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu har bir insonning betakrorligini, har bir millatning benazir madaniyatini, dunyoning rang-barangligini saqlash deganidir.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish nuqtai nazaridan olganda esa, milliy o'zlikni anglash har bir shaxs onglilik darajasining sifat jihatidan o'zgarishini anglatadi. Davlat va jamiyat esa fuqarolarning onglilik darjasini ortishi bilan qudratliroqdir. Boshqacha aytganda, milliy o'zlikni anglash shaxslarning fuqarolik pozitsiyasi barqarorligini, jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlari ongli ravishda ko'payishini, pirovard natijada demokratiyaning kengayishi va ijtimoiy muammolarning keskin kamayishini, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishini bildiradi.

Demak, fuqarolik jamiyatini shakllantirish kishilardan, avvalo, ijtimoiy hayotda faol qatnashishni, bozor iqtisodiyoti talablarini to'gri idrok etib, uni chuqurlashtirishga o'z hissasini qo'shishni talab etadi. Yurtboshimiz ta'kidlagani-dek, "Buning tasdig'ini mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat'iy va izchil tus olgani, odamlarimiz o'zga-rib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongu tafakkuri yuksalib, yon-atrofda bo'layotgan barcha voqe-a-hodisalarga daxldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko'rish, anglash qiyin emas".

Shunday ekan, fuqarolik institutlari butun ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tashkil etuvchi, boshqaruvchi, taraqqiy ettiruvchi kuch, subyektlarga aylanishi kerak.

Fuqarolik jamiyatining bunday institutlari ko'payishi, taraqqiy etishi ushbu jamiyatda paydo bo'ladigan muammolarning fuqarolar tomonidan ongli ravishda tezda bartaraf etib borilishiga, ya'ni ijtimoiy muammolarning hal etilishiga ko'maklashadi. Fuqarolarning jamiyat hayotiga faol aralashuvi, nafaqat siyosiy huquqlarning istifoda etilishi, balki shaxs intellektual salohiyatining taraqqiyot uchun xizmat qilishi, milliy o'zlikni anglashning yuksak darajada namoyon bo'lishi demakdir.

REFERENCES

1. Беҳзоджон Қуролович Маликов ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДАГИ МУАММОЛАР // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (дата обращения: 20.12.2022).
2. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Маликов, Б. Қ., & Икромов, Д. Р. Ў. (2022). ШАРҚ ТАЪЛИМОТИДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ҒОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Маликов, Б. Қ. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРДАН ҲДМОЯ КИЛИШ-ДАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Маликов, Б. Қ., & Абдураимов, О. Қ. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ БАРКАМОЛЛИК ВА МАҲНАВИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Маликов, Б. Қ., & Дехқонбоев, Ш. Б. Ў. (2022). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУХИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Маликов, Б. Қ., & Эшқурбонов, А. И. Ў. (2022). АДОЛАТЛИ ЖАМИЯТДА ОДИЛ СУД СИФАТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, Б. Қ. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИДА ИНСОН ВА ТАБИАТ ҚАДРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.

9. Маликов, Б. Қ., & Хамроқулов, С. К. Ў. (2022). ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИДА КОНСТИТУЦИЯ ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ФОЯЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Маликов, Б. Қ., & Болиева, Н. Қ. Қ. (2022). ХУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМНИНГ ИЖТИМОИЙ ХАВФИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Маликов, Б. Қ., & Бўриев, З. Б. Ў. (2022). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. 6. O'.Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIYATNING" AXAMIYATI . World Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
13. Насиба Шарифовна Юнусова, & Муслимахон Яхяева (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА. Academic research in educational sciences, 3 (10), 372-376.
14. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
15. Юнусова Насиба Шарифовна, Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан), (6 (115)), 9-16. doi: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_6_2
16. Н. Ш. Юнусова, Жавлон Алимухаммедов, & Мухаммад Суяров (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ДИН ВА АХЛОҚ МАСАЛАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 222-226.
17. Adilovich, Nosirov Rashod. "THE STRATEGIC VALUE OF EDUCATION FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TRAINING OF PROMISING PERSONNEL POTENTIAL." (2022): 183-186.
18. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 203-205.
19. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.